



## NUTQ KAMCHILIGIGA EGA BO'LGAN BOLALAR NUTQNI TEKSHIRISH USULLARI

*Andijon Davlat Pedagogika Instituti  
Logopediya yo'nalishi 1-bosqich  
Adhamjonova Muslimaxon Xayrullo qizi.  
Ilmiy raxbar; Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi:  
Mamatisayeva Surayyo Axmadjon qizi*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233814>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolda bolalarning rivojlanishidagi nutq nuqsonlarini erta aniqlash, boshqa unga o'xshash holatlardan farqlash, tashxisini ta'limdagi imkoniyatlarini aniqlash haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Nutq, diagnostika, sezgi, aloqa, cheklanish, nuqson, korreksiya, tashxis, xulq-atvor, kamchilik.

**Kirish.** Nutq bolaning atrof-muhit bilan muloqot qilishida muhim vosita hisoblanadi. Bola nutq orqali o'z fikrlarini ifodalaydi, o'qish va yozishni o'rganadi hamda jamiyatga moslashadi. Biroq ba'zi bolalarda turli sabablarga ko'ra nutq rivojlanishida kechikish yoki kamchiliklar kuzatilishi mumkin. Bunday holatlarni erta aniqlash va to'g'ri tashxis qo'yish muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq kanchiligiga ega bo'lgan bolani har tomonlama tekshirish (tug'ruqqacha, tug'ruq vaqtidagi va tug'ruqdan keyingi davri) to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni bilish zarur. Shuning uchun nutqiy faoliyat bilan birga ruhiy faoliyatning nutqiy bo'lmagan faoliyat (umumiy va nutqiy motorika) xulq, hissiyot-iroda qatlamining o'ziga xos xususiyatlari va ichki va tashqi nutqning shakllanishi hamda holati, fonematik tahlil va sintez, fonematik tasavvurlar, leksika va nutqning grammatik tuzilishi holati bog'langan nutq, nutq ohangi va surati buzilishlarining xususiyatlari ham o'rganiladi. Bolalarning nutqiy va nutqiy bo'lmagan motorikasini, ular xulqining o'ziga xos tomonlarini, ichki va tashqi nutqini o'rganish bo'yicha materiallar, shuningdek, nutqi umumiy rivojlanmagan bolalarni tekshirishga oid vazifalar o'zimiz olib borgan nutqi umumiy rivojlanmagan bolalarni tekshirish ishlarimizdan olingan ma'lumotlar va boshqa mualliflarning tekshirish natijalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Tekshirishning asosiy bosqichida logoped bola haqidagi anamnez ma'lumotlarini aniqlash maqsadida ota-onalar bilan suhbat o'tkazadi. Ota-onalar bilan suhbatda logoped oilada bo'lib o'tgan alohida ahamiyatga ega hodisalarni va shunga bog'liq holda bolalarning umumiy nutq taraqqiyotining o'ziga xos tomonlarini aniqlaydi. Bolaning tug'ruqqacha, tug'ruq vaqti va tug'ruqdan keyingi davrlardagi rivojlanishining o'ziga xos tomonlari aniqlanadi.

**Tug'ruqqacha bo'lgan davrning** ichida ona bilan suhbatda logoped ba'zi nasliy omillarni belgilaydi: ota-onalarning bola tug'ilguniga qadar salomatligining ahvoli, ularda asab-ruhiy, teritanosil kasalliklari, nutqiy patologiya bo'lganmi, ota-onalardan biri spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilmaydimi, yuqumli va boshqa kasalliklarga uchraganmi? Shuningdek, bolaning tug'ruqqacha bo'lgan rivojlanishiga oid quyidagi asosiy jihatlar aniqlanadi: Ona bolaning tug'ilayotgan vaqtidagi yoshi, onaning homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida boshdan kechirgan kasalliklari (qizilcha, gripp, toksoplazmoz, qandli diabet, jigar, buyrak kasalliklari, angina, anemiya). Homiladorlikning birinchi va ikkinchi yarmida shikastlanishlar, qorin yuzasida lat yeyishlar, yurak-tomir kasalliklari, toksikozlar, bolaning tushish xavfi bo'lganmi, homiladorlik davrida rentgenologik tekshiruvdan o'tganmi yoki qandaydir radioaktiv nurlanish bo'lganmi yoki bo'lmaganligini aniqlash.

Homiladorlik davridagi noqulay omillarni aniqlash logopedga bu omillarni bolaning keyingi nutqiy taraqqiyotiga bevosita ta'sirini aniqlashda yordam beradi. **Tug'ruq davri;** Logoped ona bilan suhbatga tug'ruq o'tishning tavsifi va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi: tug'ruqning boshlanishi o'z vaqtida homiladorlikning 8-oyida, 7-oyida suvning barvaqt ketishi



bo'lganmi, tug'ruqning uzoq davom etishi, qisqichlarning qo'llanishi, vakuum ekstraktorning qo'llanishi, tug'ruq faoliyatining muvofiq ta'minlovchi dorilar qo'llash, homilani qo'l bilan yoki kessar operatsiyani qo'llab ajratib olish. Bu suhbatda bolaning tug'ilgan paytidagi holati aniqlanishi zarur: darrov yig'laganmi yoki yo'qmi, ko'k, oq, asfiksiya, og'irligi (1500 kg dan ko'p yoki kam) bo'yi, turli shikastlar, sinishlar, qon quyilishi, tug'ruq shishi, boshqa jarohatlar bo'lganligini so'rab bilish.

**Tug'ruqdan keyingi davr;** Bolaning tug'ruqdan keyingi davridagi somatik rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarni logoped ona bilan olib boriladigan suhbat jarayonida aniqlaydi: Bolani onaga tug'ilganidan keyin necha soat o'tgach olib kelingan, bola ko'krakni qanday olgan va emgan (faol, faol emas, tezda charchab uxlashi);

Bola uyg'oq vaqtida o'zini qanday tutar edi: tinch yoki notinch, baqiroq, yig'loq va boshqalar; hayotining birinchi yilida 3 yoshgacha pnevmoniya: ko'k yo'tal, va bosh jarohatlanishi bo'lgan-bo'lmagani aniqlanadi. Bola rivojlanishining tug'ruqdan keyingi davridagi me'yordan chetga chiqishlar, turli salbiy hodisalar aniqlangach, logoped tomonidan umumiy nutq rivojlanmaganligining etiopatogenezi yanada to'la o'rganish maqsadida tahlil qilinadi.

Nutqning rivojlanmay qolishi uning sensor yoki motor tomonlarining buzilishlaridan kelib chiqadi. Ko'pincha ikkala funksiya ham buzilgan bo'ladi. Nutqning rivojlanmay qolishi sabablariga homiladorlik davridagi turli salbiy ta'sirlar, tug'ilish jarohatlari va asfiksiya bola tug'ilgandan so'ng nutq markazining jarohatlanishlari kiradi.

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni tekshirishda ko'rgazmali qurollar maksimal darajada foydalanish juda muhim. Ularga bajarishda boladan faol nutq talab etilmaydigan topshiriqlarni tavsiya etish lozim. Shu tarzda bolada bilim, tasavvurlar, o'yinni mustaqil tashkil etish va hokazolar aniqlanadi. Motor alalik bolalarda nutq buzilishlarini tashxis etish katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Alohida hollarda nutqning rivojlanmay qolishi aqliy faoliyatning rivojlanmaganligi bilan birgalikda kelishi mumkin. Bu holatni bolani maxsus nutq maktablarida uzoq vaqt olib borilgan ish natijasida aniqlash mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. D.A.Nurkeldiyeva, M.U.Hamidova. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar diagnostikasi. Toshkent-2016 L.R.Mo'minova, V.S.Alimova, X.M.Po'latova, D.A.Nurkeldiyeva, D
2. Kuzmicheva E.P. Yaxnina S.Z. Kar bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish. - M., 2003 yil.
3. Mamarajabova Z.N.Koxlear implantli eshitish moslamalari o'matilgan, zaif eshituvchi bolalar eshituv-nutqiy rehabilitatsiyasi- Toshkent:
4. Nazarova L.P. Metodika sluxovoy raboti v shkole slabosl bunashix. -M.: «Prosvesheniye», 1981
5. Kukushkina O.I., Goncharova E.L. Koxlear implantatsiyali bolalarning dinamik tasnifi - ovozni o'qitish uchun yangi vosita Defektologiya.
6. Maxsus psixologiya Z.N.Mamarajabova, L.R.Mo'minova, M.U.Xamidova, Sh.M.Amirsaidova, D.B.Yakubjonova, Z.M.Djalolova, N.Z.Abidova, O'zbekiston Toshkent - 2013
7. X.N.Muzaffarova Maktabgacha logopediya. Jizzax. "Ruhshona servis" 2021.